

Sarmoyalar tadbirkorlik taraqqiyoti sari

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning samarali faoliyat ko'rsatishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish, tadbirkorlik harakatining umumiqtisod ravnaqiga qo'shadigan hissasini ko'paytirish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim yo'naliшlaridan biridir.

«Asaka» aksiyadorlik tijorat banki Qashqadaryo viloyat filiali jamoasi tadbirkorlar tomonidan mahsulotlar ishlab chiqarilishini modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilash asosida yangi ish o'rirlari yaratish, jahon bozorida xaridorgir, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, aholi turmush farovonligini yuksaltirish borasidagi amalga oshirayotgan ishlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga intilmoqda.

Davlatimiz Rahbari tomonidan aholini tadbirkorlikka jalb etish borasida belgilangan dolzarb vazifalarni amalga oshirish maqsadida «Asaka» bank Qashqadaryo viloyat fililai tomonidan fuqarolarning tadbirkorlik bilan shug'ullanishlariga keng imkoniyatlari yaratish uchun tadbirkorlarga moliyaviy ko'mak va madad berishning yangi usullari joriy etildi. Bankning malakali mutaxassislari aholini tadbirkorlikka, ishbilarmonlikka o'rgatish va shunga yetaklash maqsadida ularning bank xizmatlari va kredit mablag'lariga bo'lgan ehtiyojini o'rganib chiqmoqda, aholi xonadonlariga tashrif buyurib, ular bilan o'tkazayotgan muloqotlarida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishlari uchun ajratilayotgan kreditlar, ularning shartlari, kredit hujjatlari va garov ta'minoti to'g'risida batafsil tushuntirishlar bermoqdalar. O'z navbatida, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish istagini bildirgan fuqarolarga namunaviy loyihalar taklif etilib, ularga kredit hujjatlarini tayyorlash bo'yicha tegishli maslahatlar berilmoqda va qisqa muddatlarda kredit mablag'lari ajratish choralar ko'rilmoxda.

Hozirgi kunda «Asaka» bank tomonidan aholiga 25 yo'naliшdagи loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha imtiyozli shartlarda kreditlar taklif etilmoqda. Bank filiali mutaxassislari viloyat tumanlaridagi 9ta qishloq va mahalla fuqarolar yig'inidagi 12 856ta xonadonga tashrif buyurib, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun tushuntirish va tavsiyalar berdilar, 14 140ta xonadonga tadbirkorlikka da'vat etilib murojaatlar yuborildi. Bu tadbirlar natijasida 2785 nafar fuqaro tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagini bildirdi. 491 nafar fuqaroga 4,0 mlrd.so'mdan ziyod miqdorda kreditlar ajratildi.

2017 yilning 1 yanvar holatiga filial tomonidan iqtisodiyotining turli sohalariga yo'naltirilgan kredit qo'yilmalari hajmi 157,6 mlrd.so'mni tashkil qildi. Kredit qo'yilmalarining asosiy qismini uzoq muddatli kreditlar tashkil etdi.

O'tgan yili bank filiali tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga jami 40,0 mlrd. so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratildi. Kreditlar viloyatda ishlab chiqarish, servis va xizmat ko'rsatish ko'lamlarini kengaytirish, hudud iqtisodiyoti va ijtimoiy turmushini yuksaltirishga xizmat qildi, ushbu sarmoyalar evaziga qo'shimcha ko'plab yangi ish o'rirlari yaratilib, yoshlar, ayniqsa kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari ish bilan ta'minlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 26 yanvardagi «Oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirishga doir

qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi va 2009 yil 28 yanvardagi «Mahalliy nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarish kengaytirilishini rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarorlariga asosan 15,3 mlrd.so'mga yaqin kreditlar ajratildi. Natijada, mahalliy iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish hajmini oshirishga erishildi.

Uzumchilik sohasini rivojlantirish, yangi tokzorlar barpo etish, eski tokzorlarni ta'mirlash, meva va sabzavotlarni saqlash uchun muzlatkichlar tashkil etish maqsadida Kitob, Shahrisabz, Qamashi, G'uzor, Yakkabog' tumanlaridagi fermer xo'jaliklariga, agrofirmalar va xususiy tadbirkorlarga jami 4,6 mlrd.so'm miqdorida imtiyozli shartlarda uzoq muddatli kreditlar ajratildi.

Filial tomonidan Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan tadbirkor ayollarga kasanachilik, tikuvchilik, hunarmandchilik, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini tashkil etish va rivojlantirish maqsadlariga ham kreditlar ajratilmoxda. Ushbu maqsadlarga bank filiali tomonidan 2,2 mlrd.so'm miqdorida kreditlar ajratildi.

Bank filiali tomonidan qishloq joylarda aholini, shu jumladan xotin-qizlarni sportga jalb etish ishlariga alohida e'tibor berilmoqda. Ushbu maqsadda «Usta Aslon tabib» mas'uliyati cheklangan jamiyatiga sport saroyini zamonaviy sport anjomlari bilan jixozlash uchun imtiyozli shartlarda uzoq muddatli kredit mablag'lari ajratildi. Buning natijasida qishloq aholisini, shuningdek xotin qizlarni, ayniqsa yoshlar va bolalarni sport bilan shug'ullanishlari uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Bank filiali tomonidan viloyatdagi iqtisodiy nochor va past rentabelli korxonalar faoliyatini jonlantirish, ularga moliyaviy ko'mak berish va bu orqali ushbu korxonalarda ishlab chiqarish faoliyatini yo'lga qo'yish va rivojlantirish bo'yicha ham faol ishlar olib borilmoqda. Jumladan, «Nasaf metall» mas'uliyati cheklangan jamiyatiga zamonaviy sport anjomlarini ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida imtiyozli shartlarda kredit mablag'lari ajratildi. Shuningdek, "Qamashi qurilish ta'mirlash" mas'uliyati cheklangan jamiyatiga profnastil ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish maqsadida zamonaviy uskunalar olish uchun imtiyozli shartlarda kredit mablag'lari ajratildi. Bankdan olingan kredit mablag'i evaziga yangi ish o'rinnari yaratilishi bilan birga, eng muhimi, ishlab chiqarilayotgan sifatlari va arzon qurilish materiallari ichki bozor talabini qondirishda muhim omil bo'lmoqda.

«Asaka» bank Qashqadaryo viloyat filiali tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 iyuldagagi "Qarshi shahrini yo'l-transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish va zamonaviy qayta qurish rejasi dasturi to'g'risida"gi Qarori ijrosini ta'minlash bo'yicha Qarshi shahrining O'zbekiston ko'chasi bo'ylab 8ta, Qarshi shahrining Nasaf ko'chasi bo'ylab 3ta va Shahrisabz shahrida 4ta ko'p qavatli uy-joy binolarining qurilish ishlari olib borilmoqda. Ushbu maqsadlarga bank filiali tomonidan 95,4 mlrd.so'm miqdorida kreditlar ajratildi. Uy-joylar qurib bitkazilishi bilan Qarshi va Shahrisabz shaharlaridagi bir qator oilalar, shu jumladan yosh oilalar barcha qulayliklarga ega, shinam uy-joylar bilan ta'minlanadi. Mazkur uylarning birinchi qavati zamonaviy savdo do'konlari va maishiy xizmat ko'rsatish muassasalariga mo'ljallangan. Bu esa,

o’z navbatida aholi uchun viloyat tadbirkorlari tomonidan ishlab chiqarilgan va yetishtirilgan mahsulotlarni sotishga hamda xizmatlar ko’rsatishga va yangi ish o’rinlarini yaratishga zamin yaratadi.

Bankning bu sohadagi tadbirlari ko’lami ancha keng hamda salmoqli va unga doir misollarni ko’plab keltirish mumkin. Xulosa o’rnida aytildigan bo’lsa, mijozlar manfaati bank xodimlari uchun doimo ustuvor va hamisha asosiy o’rinni egallaydi.

Bahodir SHAROPOV,

«Kasanachi tikuvchi chevarlari» mas’uliyati cheklangan jamiyatni raisi:

— «Asaka» bank tomonidan ajratilgan kredit mablag’i hisobiga jamiyatimizda tikuvchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni bir necha baravar ko’paytirishga erishdik, qo’shimcha yangi ish o’rinlari yaratilib, 5 nafar mahalliy yoshlarni ish bilan ta’minladik. Jamiyatimiz «Asaka» bank sarmoyalari sharofatidan iqtisodiy barqarorlikka muyassar bo’ldi, o’rtadagi ishonchli va foydali hamkorlik bundan keyin ham samarali davom etishiga astoydil umid bog’laymiz.

Xususiy tadbirkor Dildora SHAYQULLOVA:

— Yurtimizda ishbilarmonlarga yaratilgan qulay sharoitlardan ilhomlanib, yaxshi niyatlar bilan qandolat mahsulotlari ishlab chiqarishni maqsad qildim. Lekin ish faoliyatimni yo’lga qo’yish uchun mablag’ yetarli emas edi. Bizning xonadonga «Asaka» bank mutaxassislarini o’zlari tashrif buyurib, kredit taklif etiganlari men uchun ayni muddao bo’ldi. Bank krediti hisobiga zaruriy uskuna va xom-ashyo olib, o’z faoliyatimni boshlashga muvaffaq bo’ldim. Oilaviy korxonamizda ishlab chiqarilgan shirinliklarni bozori chaqqon, mijozlarimiz kundan-kunga ko’payib bormoqda. Shunga yarasha daromad ham ko’paymoqda. Bizning oilaviy biznesimizni yo’lga qo’yishda yaqindan ko’mak bergen «Asaka» bank jamoasiga o’z minnatdorchiligidan bildirib, o’zaro hamkorligimiz abadiy bo’lishini niyat qilib qolamiz.

Xudoyor ABDULLAEV,

«Qaynar» fermer xo’jaligi raisi:

— Respublikamizda meva-sabzavotlarni yetishtirish va qayta ishslashni ko’paytirishga e’tibor kundan kunga ortib bormoqda. Biz ham meva-sabzavotlarni qayta ishslash korxonasini tashkil etishni maqsad qildik, biznes reja tuzib «Asaka» bankiga murojaat etdik. Qisqa muddatda “Asaka” bank tomonidan bizga zarur bo’lgan kredit mablag’lari ajratildi. Bank krediti hisobiga zamonaviy, kam energiya sarflovchi, tejamkor uskunalar olamiz. Bu esa ishlab chiqarilgan mahsulotlarni tannarxini kamaytirishga yordam beradi. Bu loyihani amalga oshirilishi natijasida qo’shimcha 10 nafarga yaqin yangi ish o’rinlari yaratiladi va qishloq yoshlari ish bilan ta’milanadi. Biz ishlab chiqargan mahsulotlarimizni nafaqat respublikamizdagi iste’molchilarga yetkazish, balki xorijga ham eksport

qilish niyatidamiz. «Asaka» bank jamoasining xizmatlaridan, mijozlarga samimiylarini va moliyaviy ko'magidan minnatdormiz. Bundan keyin ham mazkur moliya muassasi bilan yaqin hamkorlik qilib, yangi istiqbolli loyihalarni ro'yobga chiqarish niyatidamiz.

Bank Axborot xizmati